

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ACHILOV JAMOLIDDIN SHAKIROVICH

**SERVIS MARKAZI KO‘CHMA USTAXONASINING RATSIONAL SONI
VA XIZMAT KO‘RSATISH PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.02 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalarini
ishlatish, tiklash va ta‘mirlash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Achilov Jamoliddin Shakirovich

Servis markazi ko‘chma ustaxonasining ratsional soni va xizmat ko‘rsatish
parametrlarini asoslash..... 3

Ачиллов Жамолиддин Шакирович

Обоснование рационального количества и параметров обслуживания
передвижной мастерской сервисного центра..... 19

Achilov Jamoliddin Shakirovich

Justification of the rational number of parameters for servicing a mobile
workshop service center..... 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 38

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ACHILOV JAMOLIDDIN SHAKIROVICH

**SERVIS MARKAZI KO‘CHMA USTAXONASINING RATSIONAL SONI
VA XIZMAT KO‘RSATISH PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.02 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalarini
ishlatish, tiklash va ta‘mirlash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4736 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qxmiti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Toshboltayev Maxamad Tojaliyevich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nuriyev Karim Katibovich

texnika fanlari doktori, professor

Xoliqova Nargiza Abduvaliyevna

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "5" *dekabr* soat "10" dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*489* raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "18" *noyabr* kuni tarqatildi.
(2024 yil "18" *noyabr* dagi № *47* raqamli reestr bayonnomasi).



A. To'xtaqo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

B.P. Artikbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

R.R. Xudaykuliye

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda traktor, kombayn, paxta terish mashinasi kabi murakkab qishloq xo‘jaligi mashinalariga texnik servis ko‘rsatish rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining mustaqil tarmog‘i hisoblanadi. Bu davlatlarda mashinalar ta‘miri va ularga texnik servis bilan shug‘ullanuvchi servis va dilerlik korxonalarining yillik umumiy aylanmasi mashinasozlik firmalari, kompaniyalari tomonidan bir yilda ishlab chiqarilgan jami yangi mashinalar bahosidan 3-5 marta yuqori bo‘ladi. Chunki fermer xo‘jaliklari, agroklastarlar kabi mahsulot yetishtiruvchi minglab subyektlar o‘z mashinalarining texnik holatini yuqori darajada saqlab turish maqsadida servis korxonalariga agrotexnik mavsumlar boshlanishidan ancha oldin buyurtmalar beradilar. Masalan «Dunyo miqyosida 219,15 mln. gektar maydonda g‘alla yetishtirilishini»¹ hisobga olsak, g‘alla yetishtiruvchi subyektlarni me‘yorlardagi texnika vositalari bilan butlash, texnik xizmat ko‘rsatish punktlarini tashkil etish, qishloq xo‘jaligi texnikalarini yil davomida soz holatda ushlab turish orqali g‘alla yetishtirishdagi agrotexnik tadbirlarni maqbul muddatlarda bajarish tizimini amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda.

Jahonda ko‘plab mamlakatlarda mashinalarga texnik servis ko‘rsatish samarasini oshirishga yo‘naltirilgan mavzular bo‘yicha ilmiy-amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, servis markaz ko‘chma ustaxonasining ehtimoliy-matematik modellarini tuzish, ustaxonaga bo‘lgan talabni aniqlash, uning iqtisodiy samarasini baholash, g‘alla kombaynlariga texnik servis tadbirlari orasidagi intervalning maqbul qiymatini asoslash bo‘yicha maqsadli izlanishlarni bajarish kabi dolzarb masala paydo bo‘lmoqda. Shu jihatdan respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan servis markazlari ko‘chma ustaxonalarining ratsional soni va funksiyalanish parametrlarini asoslash orqali fermer xo‘jaliklari va agroklastarlar balansidagi g‘alla kombaynlariga tez va sifatli servis ko‘rsatilishini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo‘jaligi ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish, yuqori ish unumiga ega qishloq xo‘jalik mashinalarini ishlab chiqish, ularga tez va sifatli texnik servis ko‘rsatish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan mahalliy va xorijiy texnika vositalariga tez va sifatli texnik servis ko‘rsatish hisobiga yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tannarxini kamaytirishni ta‘minlaydigan ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, "...qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘shishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini

¹ <https://www.statista.com/statistics/272536/acreage-of-grain-worldwide-by-type/s>

oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash”² vazifalari alohida belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda hududiy servis markazlarini ratsional sonli ko‘chma ustaxonalar bilan ta‘minlash, uning bandlik muddatini va servis ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni va 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar va ko‘rsatmalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Masalaning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligida texnik servis tizimini rivojlantirish, uning strukturasi va moddiy-texnika bazasini asoslash, servis markaz tarkibidagi ko‘chma ustaxona sonini aniqlash, undan foydalanish darajasini oshirish, ustaxonaning iqtisodiy samarasini baholash masalalarining ilmiy-texnologik yechimlari bo‘yicha xorijda A.Makarov, P.Privalov, Ye.Yavorskaya, G.Sidorov, V.Tkachenko, A.Gorety, M.Yudin, L.Mechkalo, A.Zaxarchenko, Yu.Kopilov, F.Puxovitskiy, N.Kulikov, Yu.Popov, V.Varnakov, V.CHERNOIVANOV, N.Xmelovoy, SH.Eremeev va boshqalar tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Ushbu yo‘nalishda O‘zbekistonda S.SHamshetov, Yu.Naumov, K.Nuriyev, N.Xoliqova, R.Rustamov, M.Toshboltayev, M.Djiyanov, Z.Seytimbetova, M.Qobulov kabi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishgan.

Bu tadqiqotlar natijalari asosida shakllantirilgan g‘oyalar, takliflar, tavsiyalar va ishlab chiqilgan yechimlari qishloq xo‘jaligi mashinalariga texnik servis ko‘rsatish tizimida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinmoqda. Ammo bu tadqiqotlarda ko‘chma ustaxonaning ratsional sonini aniqlash, uning funksiyalanish parametrlarini asoslash va iqtisodiy samarasini baholash masalalari tegishli agrotexnik mavsumning davomiyligi, muayyan mavsumdagi texnologik jarayonni bajaradigan mashina uchun belgilangan smena vaqtining qiymati, servis markaz tomonidan dalada ishlayotgan mashinalarga xizmat ko‘rsatish radiusi kabi kattaliklarni hisobga olgan holda yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni.

tadqiqoti Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Servis markazi ko'chma ustaxonasining ratsional soni va xizmat ko'rsatish parametrlarini asoslash" (2022-2024 yy.) mavzusi bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi servis markaz ko'chma ustaxonasining ratsional soni va funksiyalanish parametrlarini asoslash orqali fermer xo'jaliklari va agroklastlar balansidagi g'alla kombaynlariga tez va sifatli servis ko'rsatilishini ta'minlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

servis tizimi elementlarini ularning qishloq xo'jaligi amaliyotida funksiyalanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'riflash va tavsiflash;

servishajmdor g'alla kombaynlariga davriy texnik servis tadbirlari orasidagi intervalning maqbul qiymatini aniqlash usulini ishlab chiqish;

servis tizimida ko'chma ustaxonaga bo'lgan talabni aniqlash usulini ishlab chiqish;

ratsional miqdordagi ko'chma ustaxonaning samarasini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida qishloq xo'jaligi mashinalariga yani kombaynlariga texnik servis ko'rsatish tizimi, uning elementlari (talab, talablar manbasi, xizmat ko'rsatish asboblari, kirayotgan va chiqayotgan talablar oqimlari) uning parametrlari, g'alla kombaynlariga davriy texnik servis jarayoni hamda servis markazi tarkibidagi ko'chma ustaxonalar olingan.

Tadqiqotning predmeti servis tizimi elementlarining ta'riflari va tavsiflari, g'alla kombaynlariga davriy texnik servis orasidagi interval, servis markazi ko'chma ustaxonasining ehtimoliy-matematik modellari, talab etiladigan soni va samarali ko'rsatkichlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida monografik kuzatuv, axborotlar sintezi va tahlili, qiyosiy tahlil, matematik statistika, diskret va iqtisodiy matematika, optimallashtirish metodlaridan hamda qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlatish, tiklash va ta'mirlash fanlaridagi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ommaviy texnik servis ko'rsatish tizimida talablarni qondirilish algoritmi servis markazlariga kelib tushayotgan talablar oqimini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan;

ko'chma ustaxona tomonidan nosoz mashinalarga ko'rsatilayotgan servisning to'liqligi va tezkorligini bashoratlovchi ehtimoliy-matematik modellar nosozlikning murakkabligini hisobga olgan holda taklif etilgan;

g'alla kombaynlariga texnik servis tadbirlari orasidagi intervalning maqbul qiymati ularda bir birlik vaqt ichida sodir bo'ladigan buzilishlar soni, ko'chma ustaxonaning xizmat ko'rsatish intensivligi, bitta nosozlikni bartaraf etishga sarflangan mehnat vaqtini hisobga olgan holda aniqlangan;

g'alla kombaynlariga xizmat ko'rsatuvchi ko'chma ustaxonaning ratsional soni smena davomiyligining maqbul qiymati, xizmat ko'rsatish radiusi va minimal muddatlarda g'alla o'rim mavsumini tugatishini hisobga olgan holda asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

g'alla o'rim mavsumi 30 kun, bir smenaning davomiyligi 10 soat, servis ko'rsatish radiusi 40 km bo'lganda ko'chma ustaxona sonini 5 donaga kamaytirishga erishilgan;

davriy texnik servis tadbirlari orasidagi intervalning maqbul 14 soat qiymatida g'alla kombaynlarining tayyorlik koeffitsienti o'zining maksimal qiymatiga ega bo'lgan;

ko'chma ustaxona soni va xarajatlarini qisqarishi evaziga ko'chma ustaxona sonini 5 donaga kamayishi va servis ko'rsatish sonini 12 taga tejalishi hisobiga servis markazi bir mavsumida 651 mln. so'm iqtisodiy samara miqdorini aniqlash usuli taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ko'chma ustaxonaning talab etiladigan sonini nazariy jihatdan asoslashda ommaviy xizmat ko'rsatish, operatsion hisob, kompleks o'zgaruvchi funksiyalar fanlarining qoida va usullariga amal qilinganligi, ratsional sonli ko'chma ustaxonaning samarasi mavjudlariga qiyoslash orqali aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati servis markazi tarkibidagi ko'chma ustaxonalar sonini smena davomiyligini maqbullashtirish, xizmat ko'rsatish radiusi va agrotexnik mavsum davomiyligini minimallashtirish hisobiga kamaytirish imkoniyatlarini ifodalovchi bog'lanishlar olinganligi va ulardan boshqa shunga o'xshash masalalarni tadqiq etishda metodik manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

G'alla kombaynlariga davriy texnik servis tadbirlari orasidagi interval qiymatini maqbullashtirish, servis markazi tarkibidagi ko'chma ustaxonalar sonini ratsionallashtirish orqali fermerlar va agroklastlar balansidagi mashinalarga ko'rsatiladigan texnik servis samarasini oshirish imkoniyatlari yaratilganligi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Servis markazi ko'chma ustaxonasining ratsional soni va xizmat ko'rsatish parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

qishloq xo'jaligi texnika vositalariga tezkor va sifatli servis ko'rsatadigan ko'chma ustaxona sonini aniqlash usuli, ratsional sondagi ko'chma ustaxonaning servis markaziga keltiradigan samarasini hisoblash usuli "O'zagroservis" AJ va "Yuqorichirchiq Agroservis MTP" MChJ ga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 10-avgustdagi 04/22-05/3985-son ma'lumotnomasi). Natijada hududiy servis markazi uchun talab etiladigan ko'chma ustaxonalar soni 5 taga kamayishiga, buning hisobiga servis markazi bo'yicha g'alla o'rim mavsumida 651 mln. so'm mablag' iqtisod qilinishiga erishilgan;

ishlab chiqilgan g'alla kombaynlariga davriy servis ko'rsatishlar orasidagi interval qiymatini aniqlashning hisobiy-muhandislik usuli "Do'stlik Agroservis MTP" MChJ ga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 10-avgustdagi 04/22-05/3985-son ma'lumotnomasi). Natijada davriy servis ko'rsatishlar orasidagi interval 6 soatga, 30 kunda o'tkaziladigan servislar sonini 38 taga qisqarish buning evaziga servis markazida 82,66 mln. so'm mablag' tejab qolish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi va uning o'rganilganlik darajasi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati hamda ishonchliligi ochib berilgan, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilinishi, ularning aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Masalaning o'rganilganlik darajasi va tadqiqotning vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida servis markazlarining ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bazasini tashkil etish va ko'chma ustaxonalar sonini ratsionallashtirish orqali agroklastlar va fermerlar balansidagi g'alla kombaynlariga ko'rsatiladigan texnik servis samarasini oshirish imkoniyatlari yaratilganligi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Tadqiqotning "**Servis markazi ko'chma ustaxonasining ehtimoliy-matematik modellarini tuzish**" deb nomlangan ikkinchi bobida qishloq xo'jaligidagi servis tizimi elementlarining funksiyalanish xossalaridan kelib chiqib, ularning o'ziga xos, xususiy ta'riflash va tavsiflashlar qabul qilingan.

Ko'chma ustaxonaning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash mezonini va xususiy hollari keltirilgan.

№1 – statistik ta'rif. Talablar manbasi – mexanizatsiyalashgan ishlar, shu jumladan agrotexnik tadbirlar va yuk tashish yumushlarini bajarayotgan mashinalar.

№2 – statistik ta'rif. Talab – bu, muayyan vaqt davomida tuzatilishini kutib, navbatda turgan nosoz mashinalar yoki ularni tuzatish bo'yicha servis markazga yuborilgan buyurtmalar.

№3 – statistik ta'rif. Ko'chma xizmat ko'rsatish asbobi (kanali) – texnik servis ijrochilari balansidagi ko'chma ustaxonalar.

№4 – statistik ta'rif. Ko'chmas xizmat ko'rsatish asbobi (kanali) – texnik servis ijrochilarining nosoz mashinalarda ro'y bergan murakkab buzilishlarni tuzatish vazifalari yuklatilgan markaziy ta'mirlash sexi (ustaxonasi).

№5 – statistik ta'rif. Jonli xizmat ko'rsatish asbobi (kanali) – dalada ishlayotgan mashinani (traktorni, kombaynni) boshqarayotgan va unda sodir

bo‘ladigan oddiy nosozliklarni bartaraf etishga malakasi yetarli bo‘lgan mexanizator (operator).

№6 – statistik ta’rif. Kirayotgan talablar oqimi – tuzatilish maqsadida tizimga kirib kelgan nosoz mashinalar yoki servis markaz dispetcheriga kelib tushayotgan buyurtmalar.

№7 – statistik ta’rif. Chiqayotgan oqim – tizimdan chiqib ketayotgan mashinalar yoki buyurtmalar.

№8 – statistik ta’rif. Xizmat ko‘rsatilgan talablarning chiqayotgan oqimi – tizimni soz holatda tark etayotgan mashinalar yoki qondirilgan buyurtmalar.

№9 – statistik ta’rif. Xizmat ko‘rsatilmagan talablarning chiqayotgan oqimi – tizimni nosoz holatda tark etayotgan mashinalar yoki qondirilmagan buyurtmalar.

M.Toshboltayev, R.Rustamov, M.Qobulovning “Qishloq xo‘jaligida hududiy firmaviy texnik servis sistemasi” monografiyasida bitta g‘alla kombaynlarida sodir bo‘lgan bitta murakkab nosozlikni bartaraf etish uchun servis markaz ko‘chma ustaxonasi tomonidan sarflangan umumiy o‘rtacha vaqt t_y ning qiymatini aniqlash formulasi chiqarilgan va quyidagilar keltirilgan:

$$\mu = \frac{1}{t_y} \left(\frac{\text{tuzatish}}{h} \right). \quad (1)$$

μ parametrning fizik ma’nosi: bitta g‘alla kombaynda bitta nosozlikka servis markaz ko‘chma ustaxonasi tomonidan o‘rtacha xizmat ko‘rsatish intensivligi yoki bir birlik vaqt ichida xizmat ko‘rsatilgan (qondirilgan) talablar (tuzatishlar) soni

$$\lambda = \frac{n(t)}{T_1} \left(\frac{\text{buzilish}}{h} \right). \quad (2)$$

λ parametrning fizik ma’nosi: bir birlik vaqt ichida servis markaziga kelib tushgan talablar soni (intensivligi) yoki bir birlik vaqt ichida m sonli g‘alla kombaynlarida sodir bo‘lgan buzilishlar soni

$$\psi = \frac{\lambda}{\mu}. \quad (3)$$

ψ parametrning fizik ma’nosi: servis markazi ko‘chma ustaxonasining nosoz g‘alla kombaynlariga xizmat ko‘rsatish jarayonidagi yuklanish koeffitsienti.

1-xususiy hol. (1) formulada t_y qiymati oshib borganda ko‘chma ustaxona tomonidan bajariladigan tuzatishlar soni kamayib boradi, aksincha, t_y kamayganda tuzatishlar soni ortadi.

2-xususiy hol. (2) formulada $n(t) = 0$ bo‘lsa, $\lambda = 0$, ya’ni dalada ishlayotgan g‘alla kombaynlarining hammasi soz holatda, demakki, ularga xizmat ko‘rsatishga ehtiyoj yo‘q. $n(t) = 0$ bo‘lganda, ya’ni dalada ishlayotgan g‘alla kombaynlarning hammasi buzilganda tuzatishga bo‘lgan talablar soni λ o‘zining eng katta ($\lambda = 1$) qiymatiga erishadi.

3-xususiy hol. (3) ifoda ma’noga ega bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

$$\mu \neq 0 \text{ yoki } \frac{1}{t_y} \neq 0 \text{ yoki } t_y \rightarrow \infty \quad (4)$$


(4) ning ta'rif: $\psi = \lambda / \mu$ ifoda ma'noga ega bo'lishi uchun bir birlik vaqt ichida ko'chma ustaxona tomonidan hech bo'lmasa bitta nosoz g'alla kombayni tuzatilishi yoki bo'lmasa bitta nosoz g'alla kombaynini tuzatishga chegeralangan vaqt sarflanishi zarur.

4-xususiy hol. (3) da $\lambda = \mu$ bo'lsa, $\psi = 1$. (5)

(5) ning ta'rif. Dalada ishlayotgan g'alla kombayndagi yuzaga kelgan buzilishlar soni ko'chma ustaxona tomonidan bajarilayotgan tuzatishlar soniga teng bo'lganda ko'chma ustaxona 100 foizga yuklanadi.

5-xususiy hol. (3) da $\lambda = 0$ bo'lsa, $\psi = 0$. (6)

(6) ning ta'rif. Dalada ishlayotgan g'alla kombaynlarning hammasi soz holatda bo'lsa, ko'chma ustaxona bo'sh turadi (1-rasm).



- 1-vintli kesish stanogi (JET, IT); 2-avtonom suv isitgich; 3-qo'l yuvish joyi;
 4-sayqallash, jilvirlash stanogi; 5-tortmalar bilan jihozlangan dastgoh;
 6-ballonlarni mahkamlash joyi; 7-tiska; 8-kompressor; 9-texnologik lyuk;
 10-qo'lda boshqariladigan kran; 11-nasos agregati; 12- tokchali asboblar shkafi;
 13-kiyim uchun shkaf; 14-chilangar ish stoli; 15-ballonlarni saqlash joyi;
 16-parmalash stanogi; 17-tashqi elektr ta'minoti; 18-elekt shkafi; 19-elekt
 uskunalari uchun to'g'rilagich; 20-generator; 21-gidravlik press stoli bilan

1-rasm. Ko'chma ustaxona jihozlarining joylashish sxemasi

Ko'chma ustaxona texnik servis ko'rsatish tizimida tasodifiy miqdor sifatida bitta kombaynda buzilishlar ro'y beradigan turli t_1, t_2, \dots, t_n vaqt qiymatlarini, ya'ni T miqdorni emas, balki mazkur buzilishlarning sonli xarakteristikalarini, ya'ni K tasodifiy buzilish (talab) va u qabul qiladigan K_1, K_2, \dots, K_n diskret qiymatlarni tahlil etish muhimdir.

Shundan kelib chiqib, t argumentni K argument bilan almashtiramiz va quyidagilarga ega bo'lamiz:


$$F(K) = 1 - e^{-\lambda K}, \quad (7)$$

$$f(K) = \lambda e^{-\lambda K}. \quad (8)$$

(7) va (8) formulalar ommaviy firmaviy texnik servis ko'rsatish tizimidagi eng oddiy talablar oqimining integral va differensial funksiyalarini ifodalaydi.

2-rasmda differensial va integral funksiyalar grafiklari tasvirlangan. Ko'rinib turibdiki, $K = 0$ bo'lganda $f(0) = \lambda$ va $F(0) = 0$.

Eksponeensial qonun bilan taqsimlangan tasodifiy buzilish (K) ning (K_j, K_{j+1}) intervalga tushish ehtimoli. $K = K_j$ va $K = K_{j+1}$ bo'lganda (8) formuladan:



2-rasm. Talablar oqimi tasodiy miqdorlarining eksponeensial taqsimotining differensial va integral funksiyalari grafiklari

$$F(K_j) = 1 - e^{-\lambda K_j}, \quad F(K_{j+1}) = 1 - e^{-\lambda K_{j+1}}. \quad (9)$$

Ma'lumki, K tasodifiy miqdorning (K_j, K_{j+1}) intervalda yotuvchi qiymatni qabul qilish ehtimoli quyidagicha aniqlanadi:

$$q(K_j < K < K_{j+1}) = F(K_{j+1}) - F(K_j). \quad (10)$$

(9) ni (10) ga qo'ysak,

$$q(K_j < K < K_{j+1}) = 1 - e^{-\lambda K_{j+1}} - (1 - e^{-\lambda K_j}) = e^{-\lambda K_j} - e^{-\lambda K_{j+1}}$$

yoki

$$q(K_j < K < K_{j+1}) = e^{-\lambda K_j} - e^{-\lambda K_{j+1}}. \quad (11)$$

Ta'rif. Eksponeensial qonun bilan taqsimlangan tasodifiy buzilish (K) ning (K_j, K_{j+1}) intervalda yotuvchi qiymatni qabul qilish ehtimoli $F(K)$ integral funksiyaning shu intervaldagi orttirmasiga teng.

$e^{-\lambda K_j}$, $e^{-\lambda K_{j+1}}$ funksiyalarning qiymatlari tegishli jadvaldan topiladi va $q(K_j < K < K_{j+1})$ ehtimolning miqdori aniqlanadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, qishloq xo'jaligida g'alla o'rimi mavsumi cho'qqiga chiqqan davrda agrotexnik tadbirlarni bajarayotgan g'alla kombaynida yuzaga keladigan talablar oqimining xususiyatlari oddiy oqimga yaqinlashadi, zero bunday oqimni tashkil etuvchi talablar firmaviy texnik servis tizimiga dalada ishlayotgan katta miqdordagi mashinalar (manbalar) dan kelib tushadi.

Ekspontensial qonun bilan o'zgaruvchi talablar oqimi differensial funksiyasining son xarakteristikalari. Yuqorida asoslanganidek, ommaviy texnik servis ko'rsatish tizimida nosoz mashinalarda yuzaga keladigan tasodifiy K talablar oqimi ko'pincha eksponensial qonun bilan o'zgaradi:

$$f(K) = \lambda e^{-\lambda K}. \quad (12)$$

K talablar oqimining matematik kutilishini topamiz:

$$M(K) = \int_0^{\infty} Kf(K)dK = \lambda \int_0^{\infty} Ke^{-\lambda K} dK. \quad (13)$$

(13) ifodadagi qo'yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$M(K) = \lambda \cdot \frac{1}{\lambda^2} \quad \text{yoki} \quad M(K) = \frac{1}{\lambda}. \quad (14)$$

Demak, eksponensial qonun bilan o'zgaruvchi talablar oqimining matematik kutilishi λ parametrga teskari kattalikka teng.

Talablar oqimining dispersiyasi

$$D(K) = \int_0^{\infty} K^2 f(K)dK - [M(K)]^2. \quad (15)$$

Bu ifodaning birinchi hadini bo'laklab integrallaymiz

$$\lambda \int_0^{\infty} K^2 e^{-\lambda K} dK = \frac{2}{\lambda^2}. \quad (16)$$

(14) va (15) ni (16) ga qo'yib, topamiz:

$$D(K) = \frac{2}{\lambda^2} - \frac{1}{\lambda^2} = \frac{1}{\lambda^2} \quad \text{yoki} \quad D(K) = \frac{1}{\lambda^2}. \quad (17)$$

Talablar oqimining o'rta kvadratik chetlanishi:

$$\sigma(K) = \sqrt{D(K)} = \sqrt{\frac{1}{\lambda^2}} = \frac{1}{\lambda} \quad \text{yoki} \quad \sigma(K) = \frac{1}{\lambda}. \quad (18)$$

(14) va (18) ni taqqoslasak, quyidagi tenglikni ko'ramiz:

$$M(K) = \sigma(K) = \frac{1}{\lambda}. \quad (19)$$


Ya'ni eksponensial taqsimotning matematik kutilishi va o'rtacha kvadratik chetlanishi o'zaro teng. Bu formulalar g'alla kombayndagi buzilishlarni yoki talablar oqimini ordinarlik xossasini tavsiflaydi.

Normal taqsimot qonuni bilan o'zgaruvchi talablar oqimining statistik xossalari.

Statistik ta'rif. G'alla kombaynlariga texnik servis ko'rsatish tizimida talablar oqimining normal taqsimoti deb

$$f(\kappa) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(\kappa-\bar{\kappa})^2}{2\sigma^2}} \quad (20)$$

differensial funksiya bilan tavsiflanadigan uzluksiz tasodifiy talablar taqsimotiga aytiladi. Ko‘rinib turibdiki, normal taqsimot bunday taqsimotning matematik kutilishi \bar{K} va o‘rta kvadratik chetlanishi σ bilan aniqlanadi (3-rasm).



3-rasm. Talablar oqimi normal taqsimotining differensial funksiyasi grafigi

Laplasning normalangan taqsimot funksiyalari. Ularning qiymatlari matematik statistika jadvalidan topiladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston dala sharoitida g‘alla kombaynlariga texnik xizmat ko‘rsatishlar orasidagi intervalning maqbul qiymatini aniqlash”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida qishloq xo‘jaligi g‘alla kombaynlarining smena davomidagi ish unumi va umuman yillik samaradorligi ko‘p jihatdan ularning texnik jihatdan ishonchlilik darajalariga bog‘liq natijalari keltirilgan.

G‘alla kombaynining uch bosqichli buzilishlarini tadqiq etishda foydalanamiz. Bunda birinchi bosqichga I-murakkablikdagi, ikkinchi bosqichga II-murakkablikdagi va uchinchi bosqichga III-murakkablikdagi buzilishlar to‘g‘ri keladi, deb olamiz. Kombaynning uch bosqichli buzilishlariga quyidagi funksiyalar mos keladi:

$F_1(t) = 1 - \exp(-\lambda_1 t)$ – kombaynlarni birinchi bosqichda buzilmasdan ishlash vaqtining taqsimot funksiyasi;

$F_2(t) = 1 - \exp(-\lambda_2 t)$ – kombaynlarni ikkinchi bosqichda buzilmasdan ishlash vaqtining taqsimot funksiyasi;

$F_3(t) = 1 - \exp(-\lambda_3 t)$ – kombaynlarni uchinchi bosqichda buzilmasdan ishlash vaqtining taqsimot funksiyasi;

$H(t) = 1 - \exp(-\mu t)$ – nosoz kombaynlarni tuzatish vaqtining har uchala bosqich uchun bir xil bo‘lgan taqsimot funksiyasi keltirilgan.

Bu kombaynlar uchun birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqich ish davrlari sifatida ularni 300, 600 va 1200 motosoatgacha bo‘lgan ishlanmalarini olishni taklif qilamiz.

Kombaynlarning birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlardagi buzilishlar intensivliklarini $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$ simvollar bilan belgilaymiz. Ko'chma ustaxonaning nosoz kombaynlarga xizmat ko'rsatish intensivligi μ va nosozliklarga o'rtacha texnik servis vaqti T_{xk} bo'lsin. G'alla o'rimi mavsumi yakunlanayotgan davrda kombaynlar ustida olib borilgan xronometrik tajribalar asosida ularning son qiymatlari aniqlangan: $\lambda_1 = 0,05(1/h)$; $\lambda_2 = 0,1(1/h)$; $\lambda_3 = 0,2(1/h)$; $\mu = 1,0(1/h)$; $T_{xk} = 0,25(h)$.

$$Aa^2 + Ba + C = 0 \quad (21)$$

formulardagi A, B va C doimiylarning qiymatlarini hisoblaymiz:

$$0,1078a^2 - 0,541a - 13,576 = 0. \quad (22)$$

(22) kvadrat tenglamaning ildizlarini topamiz:

$$a_{1,2} = \frac{0,541 \pm \sqrt{0,541^2 + 4 \cdot 0,1078 \cdot 13,576}}{2 \cdot 0,1078} = 14,0083 \text{ h.}$$

Buni $a_{onm} = 14 \text{ h}$ deb qabul qilish mumkin.

Dissertatsiyaning “**Servis markazi ko'chma ustaxonasining ratsional soni va iqtisodiy samarasini aniqlash**” deb nomlangan to'rtinchi bobida ko'chma ustaxonalardan samarali foydalanishning muhim shartlaridan biri – bu ularning talab etiladigan ratsional soni va yuklanishini to'g'ri aniqlash va rejalashtirishdir. Bu usulda ko'chma ustaxonalar soni quyidagi empirik formula yordamida hisoblangan:

$$Y = \frac{\frac{QM_c K_U \eta}{Dm_k} + \frac{5,3n_T}{V}}{T_c - \frac{2,65S + 3,07C - 7,09}{V} - 0,98}, \quad (23)$$

bunda Q – kombaynlarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyasining xizmat doirasidagi “CASE-2366” rusumdagi g'alla kombaynlari tarkibida bir yilda bajargan ish hajmi, (tonna-yonilg'i)/yil;

M_c – buzilishlarni bartaraf etishdagi solishtirma mehnathajmdorligi, (kishi-soat)/(tonna-yonilg'i);

D – tadqiq etilayotgan davrdagi ishchi kunlarining soni, kun;

m_k – ko'chma ustaxonadagi mutaxassislar soni, kishi;

K_U – tadqiq etilayotgan davrda bajarilgan ish hajmining yillik ish hajmidagi ulushi;

n_T – kombaynlarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyasining yoki ko'chma ustaxona mexanigiga bir kunda kelib tushgan talablar soni, dona/kun;

V – ko'chma ustaxona avtomashinasining o'rtacha harakatlanish tezligi, km/h;

T_c – bir smenaning davomiyligi, h;

η – texnik xizmat ko‘rsatish va buzilishlarni bartaraf etishdagi mehnathajmdorligining tuzatish koeffitsienti, $\eta = 1,27$;

S – kombaynlarga texnik xizmat ko‘rsatish stantsiyasining joylashgan manzil va g‘alla kombaynlari ishlayotgan dalalar orasidagi o‘rtacha yo‘l masofasi, km.

Servis markazi dispatcheri yoki ko‘chma ustaxona mexanigiga buyurtmachilar (kombaynchi, agroklaster, fermer, muhandisi) tomonidan g‘alla kombaynlarida yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etishni so‘rab yuborilgan talablar soni n_r quyidagicha topiladi:

$$n_r = \frac{QK_u n_c}{D}, \text{ (dona/kun)} \quad (24)$$

bunda n_c – buzilishlarni bartaraf etish bo‘yicha talablar soni.

1) Servis markazi ko‘chma ustaxonasining ratsional soni va xizmat ko‘rsatish parametrlarini asoslash bo‘yicha iqtisodiy samarani jadval bo‘yicha hisoblaymiz.

Mavsum davomiyligi $D=90$ kun, bir smenaning davomiyligi $T_c=8$ h va servis markazi ko‘chma ustaxonasining xizmat ko‘rsatish radiusi $S=110$ km bo‘lganda ustaxonaning talab etiladigan soni $V_1=19$ dona.

$D=30$ kun, $T_c=10$ h va $S=40$ km bo‘lganda $V_4=14$ dona.

2) ko‘chma ustaxona sonining absolyut kamayish (tejalish) qiymati.

$\Delta Y_a = V_1 - V_4 = 19 - 14 = 5$ dona.

Servis ko‘rsatishning turli parametrlarida g‘alla kombaynlariga xizmat ko‘rsatadigan ko‘chma ustaxonalarning talab etiladigan sonlari

Hisob-kitob varianti	Mavsum davomiyligi, D (kun)	Bir smenaning davomiyligi, T_c (h)	Ko‘chma ustaxonaning xizmat ko‘rsatish radiusi, S (km)	Ko‘chma ustaxonaning talab etiladigan soni, V (dona)
1	90	8	110	19
2	90	8	40	7
3	90	10	40	5
4	30	10	40	14

3) “Damas” mikroavtobusi bazasidagi zarur asbob-uskunalar bilan jihozlangan ko‘chma ustaxona avtomashinasining balans bahosi.

$B_k = 125000000$ so‘m (“UzCaseServis” QKning 2023 yil may oyidagi ma’lumotidan).

4) Ko‘chma ustaxona sonini kamayishi hisobiga servis markazi xarajatlarini bir g‘alla o‘rim mavsumi ($D=30$ kun) davomida absolyut pasayishi (tejalishi) kuzatiladi. $\Delta X_a = \Delta Y_a \cdot B_k = 5 \cdot 125000000$ so‘m yoki $\Delta X_a = 625$ mln. so‘m.

5) Hozirgi paytlarda “CASE-2366” kombaynlari g‘alla o‘rimida 300 motosoat ishlanmadan keyin ko‘rsatiladigan davriy servis asosiy hisoblanadi. Chunki 600 va 1200 motosoatlardan keyingi servislarda ham 300 motosoatda bajariladigan ishlar

– motor moyi va 4 xil filtrni yangilariga almashtirish, uzellarni solidol bilan moylash takrorlanadi.

Ko‘chma ustaxona tomonidan har 300 motosoatda g‘alla kombaynlariga ko‘rsatiladigan servis bahosi $C_6 = 2175375$ so‘m (“UzCaseServis” QK ning 2023 yil may oyidagi ma’lumotidan).

6) Demak, 1 ta ko‘chma ustaxona har 300 h da 1 ta, bir oyda yoki $30 \cdot 24 = 720$ h da $720/300 = 2,4$ ta servisni bajaradi.

Ko‘chma ustaxona sonini 19 tadan 14 taga, ya’ni 5 taga kamayishi hisobiga servis sonini absolyut kamayishi: $\Delta Y_{5a} = 5 \cdot 2,4 = 12$ ta.

12 ta servis tadbiri tejalganda servis markazi xarajatlarini absolyut pasayishi: $\Delta C_{5x} = \Delta Y_{5a} C_6 = 12 \cdot 2175375 = 2610450$ so‘m yoki $\Delta C_{5x} \approx 26$ mln. so‘m.

7) davomiyligi 30 kun bo‘lgan g‘alla o‘rim mavsumida ko‘chma ustaxona sonini ratsionallashtirish (kamaytirish) hisobiga servis markazi oladigan iqtisodiy samara: $H_c = \Delta X_a + \Delta C_{5x} = 651$ mln. so‘m.

XULOSA

“Servis markazi ko‘chma ustaxonasining ratsional soni va xizmat ko‘rsatish parametrlarini asoslash” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Servis markazlari tizimidagi ustaxonalar (ijrochilar) tomonidan fermer xo‘jaliklari va agroklastlar (buyurtmachilar) balansidagi qishloq xo‘jaligi g‘alla kombaynlariga texnik xizmat ko‘rsatishning amaldagi holati servis tezkorligi va sifatini oshirish, xarajatlarini kamaytirish uchun ko‘chma ustaxonaning ratsional soni va funktsiyalanish parametrlarini asoslashga doir masalani hal etishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

2. Servis tizimi elementlari (talablar manbai, talab, kirayotgan talablar oqimi, chiqayotgan talablar oqimi) ilk bor qishloq xo‘jaligi g‘alla kombaynlariga servisning o‘ziga xos xususiyatlari hamda servis xizmat ko‘rsatish fani ob’ekti va predmetidan kelib chiqqan holda ta’riflandi va tavsiflandi.

3. Ko‘chma ustaxonaning yuklanish koeffitsienti servis tizimining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, nosoz kombaynlarga ko‘rsatilayotgan texnik xizmatlarning to‘liqligi va tezkorligini ifodalaydi.

4. Bir soatdagi buzilishlar soni 0,05-0,2 dona, tuzatishlar soni 1,0 dona bo‘lsa, ko‘chma ustaxona mexanigi bitta buzilishni tuzatishga 0,25 h vaqt sarflaganda intervalning optimal qiymati 14 h ga tenglashadi.

G‘alla kombaynlarida ketma-ket bajariladigan texnik servis tadbirlari orasidagi interval qiymati amalda 8 soat deb qabul qilinadi. 30 kunda yoki 720 soatda o‘tkaziladigan texnik servis tadbirlari soni nazariy tadqiqotlar bo‘yicha: 52 ta, amaliyotda 90 ta, ya’ni 1 oyda texnik servis soni 38 taga qisqaradi. Kombaynga ko‘rsatiladigan 1 ta servisning bahosi 2 175 375 so‘m. G‘alla kombaynlariga texnik servis tadbirlari orasidagi interval qiymatini 6 soatga, ko‘rsatiladigan texnik servis sonini 38 taga qisqarishi hisobiga servis markazi oladigan iqtisodiy samara 82,66 mln. so‘mni tashkil etadi.

5. G'alla o'rim mavsumi davomiyligini 30 kun, texnik servis tadbirlari orasidagi interval qiymatini 10 h, ko'chma ustaxonaning xizmat ko'rsatish radiusini 40 km bo'lishiga erishilganda ustaxonaning talab etiladigan soni 19 donadan 14 donaga kamayadi.

6. "Damas" mikroavtobusi bazasidagi ko'chma ustaxona sonini 5 donaga kamayishi va servis ko'rsatish sonini 12 taga tejalishi hisobiga servis markazi bir g'alla o'rim mavsumida 651 mln. so'm iqtisodiy samara oladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/13.05.2020.Т.112.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

АЧИЛОВ ДЖАМОЛИДДИН ШАКИРОВИЧ

**ОБОСНОВАНИЕ РАЦИОНАЛЬНОГО КОЛИЧЕСТВА И
ПАРАМЕТРОВ ОБСЛУЖИВАНИЯ ПЕРЕДВИЖНОЙ МАСТЕРСКОЙ
СЕРВИСНОГО ЦЕНТРА**

**05.07.02 - Сельскохозяйственная и мелиоративная техника
эксплуатация, восстановление и ремонт**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Гульбахор – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за В2024.2.PhD/T4736.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.qxmiti.uz и Информационно образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Тошболтаев Махаммад Тожаевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Нурiev Карим Катибович
доктор технических наук, профессор

Холикова Наргиза Абдувалитовна
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный аграрный университет


Защита диссертации состоится «5» декабря 2024 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.05/13.05.2020.T.112.01 при Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства (Адрес: 110801, Ташкентская область, Янгйольский район, пос. Гульбахор, улица Самаркандская, дом 41, Тел.: (+99870) 601-07-04, факс: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства (регистрационный номер 489) (Адрес: 110801, Ташкентская область, Янгйольский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, дом 41, Тел.: (+99870) 601-07-04, факс: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Автореферат диссертации разослан «18» ноября 2024 года.

(Протокол рассылки № 47 от «18» ноября 2024 года).




А. Тухтакулиев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Б.П. Артикбаев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по техническим наукам, старший научный сотрудник

Р.Р. Худайкулиев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, кандидат технических наук, старший научный сотрудник

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире техническое обслуживание сложных сельскохозяйственных машин, таких как тракторы, комбайны, хлопкоуборочные машины, является самостоятельной отраслью экономики развитых стран. В этих странах общий годовой оборот сервисных и дилерских предприятий, занимающихся ремонтом машин и их техническим обслуживанием, в 3-5 раз превышает стоимость всех новых машин, производимых машиностроительными фирмами и компаниями за год. Это объясняется тем, что тысячи субъектов, производящих продукцию, такие как фермерские хозяйства и агрокластеры, размещают заказы в сервисных предприятиях задолго до начала агротехнического сезона с целью поддержания технического состояния своих машин на высоком уровне. Например, учитывая, что «в мировом масштабе зерно выращивается на площади 219,15 млн. гектаров»¹, это требует внедрения в практику системы выполнения агротехнических мероприятий по выращиванию зерна в оптимальные сроки путем оснащения зерносеющих субъектов нормативными техническими средствами, организации пунктов технического обслуживания, поддержания сельскохозяйственной техники в исправном состоянии в течение года.

Во многих странах мира проводятся научно-практические и инновационные исследования по темам, направленным на повышение эффективности технического обслуживания машин. В связи с этим возникают актуальные задачи по составлению вероятностно-математических моделей передвижной мастерской сервисного центра, определению спроса на мастерскую, оценке ее экономической эффективности, проведению целевых исследований по обоснованию оптимального значения интервала между мероприятиями технического обслуживания зерноуборочных комбайнов. В этом аспекте особое внимание уделяется обеспечению быстрого и качественного обслуживания зерноуборочных комбайнов, находящихся на балансе фермерских хозяйств и агрокластеров путем обоснования рационального количества и параметров функционирования передвижных мастерских сервисных центров, действующих в нашей республике.

В сельскохозяйственном производстве Республики Узбекистан реализуются комплексные меры по снижению затрат труда и энергии, экономии ресурсов, выращиванию сельскохозяйственных культур на основе передовых технологий, разработке высокопроизводительных сельскохозяйственных машин, оказанию им быстрого и качественного технического обслуживания. В частности, особое внимание уделяется разработке научно-технических решений, обеспечивающих снижение себестоимости выращиваемой сельскохозяйственной продукции за счет быстрого и качественного технического обслуживания отечественной и зарубежной техники. В стратегии развития сельского хозяйства Республики

¹<https://www.statista.com/statistics/272536/acreage-of-grain-worldwide-by-type/s>

